

**“BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILARNI YOZMA ISH TURLARIDAN INSHO
YOZISHGA O‘RGATISH YO‘LLARI”**

Urganch Davlat Universiteti Pedagogika fakulteti

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi

3-bosqich talabasi

Kadamova Mohinur Mamurbek qizi

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada maktab o‘quvchilarini yozma ish yozish qoidalari bilan tanishtirish, insho yozishga o‘rgatish, inshoni mazmunli qoidalariga asosan to‘g‘ri yozilishi haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *Kommunikativ muloqot, Insho, Syujet, dalil, tezis, plan, mavzu, imlo xatosiz yozish, epigraf.*

Аннотация: *В данной научной статье рассказывается о том, как познакомить школьников с правилами письма, научить их писать сочинение, правильно писать сочинение на основе осмысленных правил*

Ключевые слова: *Коммуникативное общение, Эссе, Сюжет, доказательство, тезис, план, тема, орфографические ошибки, эпиграф*

Abstract: *This scientific article talks about introducing schoolchildren to the rules of writing, teaching them to write an essay, and writing the essay correctly based on the meaningful rules.*

Key words: *Communicative communication, Essay, Plot, evidence, thesis, plan, theme, spelling mistakes, epigraph.*

Mamlakatimiz taraqqiyoti va kelajagi ko‘p jihatdan ta‘lim tarbiya sohasidagi sifat o‘zgarishlari, yuqori samaradorlikka erishish ularning jahon ta‘limi talablari bilan mosligi amaliy faoliyatdagi o‘rnini qay darajada topoyotganigi bilan uzviy bog‘liqdir. Bugungi kunda Respublikamizda uzluksiz ta‘lim-tizimining hayotimizda o‘z o‘rnini va amaliy ahamiyatini topishda diqqatga sazovar ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa “Talim to‘g‘risidagi” qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning qabul qilinishi ta‘limga, xususan uzluksiz ta‘lim tizimining asosini tashkil etuvchi boshlang‘ich ta‘limga, xususan, uzluksiz ta‘lim tizimining asosini tashkil etuvchi boshlang‘ich ta‘limga bo‘lgan talabning ijobiy tomonga o‘zgarishiga olib keldi. Boshlang‘ich ta‘lim asosan o‘quvchining ongiga savodxonlik asoslarini elementlarini singdirish davridan iboratdir. Demak bu davrdagi savodxonlik uzluksiz ta‘lim tizimining keyingi bo‘g‘inlarini intellektual salohiyoti bo‘lishligiga mustahkam zamin yaratadi. Muhtaram, Prezidentimiz tadbiri bilan aytganda “Agar poydevor mustahkam bilim va tarbiya berilsagina qaysi fan bo‘lishidan qat‘iy nazar yuqori sinflarda o‘quvchining o‘zlashtirishi oson kichadi.” Boshlang‘ich ta‘limning asosiy maqsadlaridan biri ham umumiy o‘rta ta‘lim uchun zarur bo‘lgan savodxonlik davrida shakllantirishga qaratilgandir. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda ta‘lim mazmuniga qo‘yilgan talablarga jiddiy

yondashmoq lozim bo'lad. Birinchi va ikkinchi sinflarda bolalar maktab hayotida faoliyat ko'rsatishga tayyorlanadi. O'quv fanlaridan umumiy tushunchalar beriladi o'qish, yozish, hisoblash, kuzatish va mehnat malakalari hosil qilishga savodxonlik to'liq egallanishiga asosiy e'tibor qaratishdi. Uchinchi, to'rtinchi sinflarda esa bilim, ko'nikma va malakalar yanada mustahkamlanadi, dastlabki nazariy tushunchalar hamda tasavvurlar hosil qilinadi. Ma'lumki, odam hamisha o'zining og'zaki va yozma nutq takomili bilan qiziqib kelgan. Aynan nutqiy imkoniyatlari orqali inson o'z ichki olamini, tuyg'ularini to'liq namoyon etadi. Boshlang'ich sinflar o'qituvchisi adabiy ta'lim amaliyotida o'quvchilarning ijodiy nutqiy faoliyatini tizimga solish uchun har xil metod va usullardan foydalanishi mumkin. O'qish darslarida nutq o'stirishning asosiy yo'nalishlaridan biri matnning o'quv tahlili bo'lib, u har xil nutqiy vaziyatlarni hosil qilish, dialogik muloqot uchun vaziyat yaratish, adabiy mavzularda monologik nutq turlaridan foydalanishga o'rgatish orqali amalga oshiriladi. O'quvchilar nutqining rivojlanganligini tekshirish mezonlari faol leksika, terminologiya, tasviriy ifodalarga egalik, nutqni mazmunli, ma'lumotlarga boy qilish, chiqishlarni mantiqiy aniqlik va xulosalarning mustaqilligi bilan boyitish va hokazolar bilan belgilanadi. Kichik o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqi darajasi bugungi kunda nafaqat metodik yoki pedagogik, balki jamiyat miqyosidagi ijtimoiy muammolardan biri bo'lib turibdi. Kommunikativ muloqot ishtirokchilarining ko'pchigi o'z fikrini aniq va ravon ifodalashga, fikrlarini ma'lum bir tizimda bayon etish qobiliyatiga, balki ta'lim tizimining barcha bosqichlarida, barcha o'quv fanlari tizimida kuzatish mumkin. Ta'lim amaliyotida, asosan, adabiy ta'limda fikr ifodalashning nozik tomonlari, uning rang-barangligi va emotsionalligiga erishishga e'tibor qaratiladi. Nutq ifodalashda bunday ko'nikmalarni egallash va og'zaki nutqni takomillashtirish suhbat, muhokama, qayta hikoyalash, dialoglar, ma'ruzalar asnosida amalga oshiriladi. Maktabdagi barcha o'quv fanlarini o'zlashtirishda, xususan, boshlang'ich adabiy ta'limda ham o'z maqsadidan kelib chiqqan holda birinchi sinfdan boshlab tasviriy san'at asarlariga murojaat qilinadi. Chunki Xalq ta'limi vazirligining 2018-2019-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejasida tasviriy san'at darslariga boshlang'ich ta'limning 1-sinfidan boshlab haftasiga bir soatdan vaqt ajratilgan. Demak, o'quvchilar ta'limning dastlabki sinfidan boshlab mo'yqalam san'at namunalari o'rganadilar. Boshlang'ich adabiy ta'lim amaliyotida adabiy-badiiy asarlar qanday o'qib tahlilga tortilsa, mo'yqalam mahsuli bo'lgan suratlarni ham huddi shunday o'qish va tushunish, tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Chunki badiiy matnda ham, mo'yqalam asarida ham mavzu sujet, g'oya, badiiy uslub, obrazlar, timsollar bo'lib, har ikki yo'nalishdagi asarlarda tasvirlangan voqeaning davri, qahramonlari o'z ifodasini topgan bo'ladi. Ammo, shuni afsus bilan tan olish kerakki, birorta o'qituvchi, nafaqat boshlang'ich sinflar, balki yuqori sinf muallimlari ham, san'at asarlarining yaratilishi, undagi mavzu, sujet, g'oya, badiiylik haqida jo'yali ma'lumot bera olmaydi. Chunki milliy oliy pedagogik ta'limda bo'lajak o'qituvchilar bunga-tasviriy san'at namunalari o'qishga o'rgatmaydi. Shu boisdan tasviriy san'at namunalari nechtadan darsda, qaysi sinfdan foydalanishidan qat'i nazar, mohiyatiga kirilmay, tahlilga tortilmay qoldirilib ketilaveriladi. Sababi, o'qituvchilar

o'zlari bilmagan narsani o'quvchilariga o'rgata olmaydilar. Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limi jarayonida har xil sujetli rasmlar mazmuni asosida og'zaki hikoya tuzish, insho yozish bilan bog'liq ishlar o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish maqsadida tashkil etiladi, albatta. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga oliy maktabda bu haqida tasviriy san'at darslarini tashkil etish maqsadida ma'lum bilimlar qisqacha bo'lsada beriladi.

O'quvchilarni insho yozishga o'rgatish davomida insho haqida, yozma nutqning qonun-qoidalari haqida ma'lumot berib borish zarur. Og'zaki nutq bilan yozma nutq o'rtasidagi farq haqida har bir o'quvchi tasavvur hosil qilishi kerak. Og'zaki nutqda so'zlovchi o'z mulohazalarini aytish davomida qo'l harakatlari bilan fikrining osonroq tushunilishiga erishadi. U nutqning mazmuniga ko'ra ohang tanlay olish imkoniyatiga ega. Insho haqida ma'lumot berganda "insho" so'zining ma'nosini sharqlash yaxshi natija beradi. "Insho" arabcha so'z bo'lib, uning ma'nosi "yaratish", "bino qilish", "qurish", "boshlash" demakdir. Tilimizda bu so'zning ma'nosi ancha torayib, asosan, o'quvchi va talabalar tomonidan yoziladigan ijodiy yozma ish ma'nosida qo'llanadi. Insho o'quvchining ma'lum bir mavzuni mustaqil ravishda ochib bera olish, o'z fikrlarini yozma shaklda to'g'ri, ravon, savodli bayon qila olish ko'nikma va malakalarini, shu mavzu bo'yicha bilimlarini namoyish etuvchi ijodiy matn – kichik bir asardir. Yozuvchi va shoir, olim va muxbir o'zi yozadigan asar, ilmiy ish, maqolaga katta ma'suliyat bilan qaragani kabi o'quvchi ham insho yozishdan oldin unga har tomonlama tayyorlanishi lozim. Zero insho o'quvchi ma'naviyati va marifati ko'zguvidir. Unda o'quvchining bilimlari, his-tuyg'ulari, fikrlarini bayon etish ko'nikma va malakalari o'z aksini topadi.

Insho asosan 3 turlidir: Adabiy insho, Adabiy-ijodiy, insho Erkin insho. Bizga birinchi sinfdan tanish bo'lgan oddiy yozma tasvirlar, rasm asosidagi hikoya turli xil maktublar ham inshoga o'xshaydi. Lekin ularni tom ma'noda insho deb bo'lmaydi. Chunki bunday yozma ishlarda o'quvchining mustaqilligi va ijodiyligi chegaralangan bo'ladi. 1. Adabiy mavzudagi insholarga o'qituvchi tomonidan dars mashg'ulotlarida tushuntirilgan va adabiyot darslarida qayd qilingan mavzular kiradi. 2. Adabiy-ijodiy mavzudagi insholarni yozishda esa, bir tomondan, darsda alohida mavzu sifatida olingan ma'lumotlar, ikkinchi tomondan, sinfdan tashqari o'quvchi o'zlashtirilgan materiallar haqida fikr yuritish talab qilinadi. Birinchi turdagi insholarni yozishda o'quvchining mustaqil fikrlashi nisbatan chegaralangan bo'ladi. Ammo bu mulohaza ularda mustaqil fikrlash talab qilinmas ekan, degan xulosaga olib kelmasligi lozim. Ikkinchi turdagi insholarda o'quvchining mustaqilligi yorqinroq seziladi. Chunki ularni yozishda o'quvchining mavzuga munosabati yetakchi ahamiyat kasb etadi. 3. Erkin insholar bevosita adabiyot darslarida qayd etilmagan mavzularda yoziladi. O'quvchilar o'zlari yoqtirgan mavzularda erkin tanlagan holda yozishi mumkin. Masalan: Orzular, kasb tanlash, Vatan haqida va yana boshqa mavzular yoritib berilishi mumkin.

O'quvchilar insho yozish malakasini hosil qilishlari davomida mavzu, reja, epigraf, tezis, dalil kabi terminlarning ma'nosini ham o'zlashtirib olishlari kerak.

MAVZU

Mavzu inshoning nima haqida yozilishini belgilaydi. Mavzu o'quvchiga tushunarli tarzda tushunilishi lozim. Odatda, insho mavzusi sodda va atov gaplardan tuziladi. Uning aniq va izchil tarzda tuzilishi inshoning ijobiy natijasini ta'minlaydi. Mavzu bilan tanishgan o'quvchi inshoning kompozitsiyasini, tuzilishini, nimalar haqida fikrlash lozimligini tasavvur etishi kerak. Aks holda, insho mavzusidan tashqari masalalarga bag'ishlanib qolishi mumkin.

PLAN

Inshoning planini tuzish uni yozish jarayonida eng muhim bosqichlaridan biridir. Ma'lumki, o'rta maktabdagi insho plani xarakter jihatdan ikki xil bo'ladi: a) sodda plan; b) murakkab plan. O'quvchi plan turini yozilayotgub mavzuning xususiyatiga qarab tanlaydi.

EPIGRAF

Epigraf adabiy asarning yoki uning biror qismi (bobi)ning mazmunini ifodalaydigan, asosiy g'oyasini ochib beradigan ibora, maqola yoki matal, aforizm, hikmatli so'z va hokazolar bo'ladi. Epigrafdan o'quvchilar insho yozishda ham foydalaniladi.

TEZIS

Tezis inshoda bayon qilinadigan asosiy fikrdan iborat. Tajribali o'qituvchilar o'z o'quvchilarida inshoning tezisini tuzish malakasini hosil qilishga alohida e'tibor bilan qaraydi. Odatda, planda keltirilgan moddalar biroz sharhlanganda insho tezisiga aylanadi.

DALIL

O'quvchilar o'z fikrlarini dalillashni og'zaki savol-javob qilishda o'rganadilar. O'quvchining o'tilgan mavzu haqidagi fikri albatta adabiy materialdan misol keltirilgan holda dalillanadi. Dalil keltirishning zarurligi o'quvchida bevosita birinchi manbaga murojaat qilish majburiyatini yuklaydi. O'qituvchi ish faoliyatida dalilash san'atini yaxshi egallagan bo'lsa, o'quvchilarni tahlilash usullari bilan tanishtirib borsa, yozma ishni yozishga o'rgatish ancha osonlashadi.

Shu terminlar bilan insho yozilsa, insho yaxshi yoritib beriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqi bilan bog'liq holda ularning yozma nutqini rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, yozma nutqning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. U kommunikativ jarayonda bevosita ishtirok etmaydi. Agar o'zaki nutqda jumla yoki so'zlarning to'liq ifodalanmasligi, ayrim qo'shimchalarning tushirib qoldirilishi, almashinishi singari holatlar yuz berishi mumkin bo'lsa, yozma nutqda fikr ifodalashda mantiqiy izchillik, so'z va iboralarning tizimliliigi taqozo etiladi. O'quvchi yozma nutqini takomillashtirishning keng tarqalgan usuli turfa janrlarda va har xil adabiy mavzularda insholar, esselar, bayonlar yozdirishga undashdir. O'quvchilarning boshqa turdagi mustaqil ishlari, yozma shaklda bajariladigan uy vazifalari ham yozma nutqning rivojlanishiga ko'maklashadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida insholar erkin mavzular (asosiy materialning olinajak manbasi, janri, hajmi, bajarish yo'li va usuliga, qo'shimcha topshiriqlari mavjudligiga ko'ra) da, maqsadiga ko'ra ta'limiy hamda nazorat shaklida tashkil

etiladi. Dastlabki-alifbegacha va alifbe (taxminan, 12-13 hafta), hali bolalar o'qishni ham, yozishni ham to'la bilmaydigan davrda, ularga o'z kuzatishlari, hayotidagi har xil voqea hodisalar (mashg'ulotlar, o'yinlar, qiziqishlar, mavsumiy mehnat) bo'yicha og'zaki insho, rasmlar asosida hikoya tuzish bo'yicha amaliy mashqlarni bajartirish samarali natijalar beradi. O'quvchilar tomonidan tuzilgan bu hikoyalar ularning birinchi insholari sanaladi.

O'quv yilining ilk kunlaridan o'qituvchilar bolalarni tabiatni kuzatish va shu asosda tabiat taqvimini yuritishni o'rgatadilar. Bu kuzatishlarning o'zi ham quyidagi savollarga javob beruvchi hikoya-o'zaki insho uchun mavzu bo'lishi mumkin. "Bugun ob-havo qanday? Osmon qanday ko'rinishda? Havo bulut bo'lganda osmon qanday ko'rinishda bo'ladi? Nega shunday bo'lishini bilasizmi? Quyoshning qizdirishi nimalarga va nimasi bilan foydali, deb o'ylaysiz? Oy nurining sabzavot va mevalarga foydali jihati bormi? Agar bor bo'lsa, buni nimalarda ko'rish mumkin? Shamol foydali hodisami yoki zararlami? Kuchli shamol yaxshimi, yomonmi? Shamol nimasi bilan yaxshi-yu, nimasi bilan yomon, sizningcha? Yomg'ir yog'yaptimi? Kun issiqmi yo sovuq? va boshqalar. Kelasi safargacha o'quvchilar ob-havoni kuzatib borishga odatlanadilar va kecha qanday edi, bugun qanaqa ekanligini aytib beradilar. O'quvchilar bir-birini to'ldirib, alohida-alohida aytilgan gaplarni o'qituvchi yordamida o'zaro bog'lab, mantiqiy izchillikda hikoya tuzadilar. Bu hikoyalar hech qanday munosabatsiz, aniq vaziyat yoki holat tasviridan iborat bo'ladi.

Insho 1-sinfda kichik og'zaki axborot yoki oddiy hikoyadan boshlanib, sinflar yuqori borgan sari o'quvchini o'z fikrini ifodalashga o'rgatadigan, o'quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qiladigan, aqlini peshlab dunyoqarashini kengaytiradigan, tafakkurini tiniqlashtiradigan, nazarini ziyorlashtiradigan ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ish turiga aylanib boradi. Insho bola shaxsini shakllantirishda g'oyat samarali vosita bo'lib, his-hayajon uyg'otadi, aqliy mustaqillikka, fikrlashga, ko'rgan-kechirganlari va o'zlashtirganlarini baholashga, voqea-hodisalar o'rtasidagi sabab-natija bog'lanishini topishga, ularni qiyoslashga, xulosa chiqarishga o'rgatadi. Insho o'quvchini o'z fikrini tartibga solishga yo'naltiradi. Insho yozish va og'zaki hikoya qilish darsda ilgari bajarilgan ishlarning yakunidir. Inshoning darsdagi umumlashtiruvchilik roli bog'lanishli nutq sohasidagi ko'nikmalarni egallash me'yoriga qarab ortib boradi. Insho yozish uchun 2-sinfda, odatda, bir dars, ammo zarur bo'lib qolsa, ikkinchi darsdan 15-20 daqiqa, 3-4 sinflarda bir yoki bir yarim dars, ayrim vaqtlarda 2 darsgacha ajratiladi.

O'quvchilarni insho yozishga yo'naltirish bugungi kunda ham umumta'lim maktablari o'qituvchilari oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda yozdiriladigan insholarning muhim turlaridan biri kichik yoshdagi o'quvchilarning hayotiy tajribasiga asoslangan insholardir.

Insho ijodiy ishning eng yuqori shakli bo'lib, maktabda alohida o'rin tutadi; barcha nutqqa oid mashqlar m a'lum mazmunda inshoga bo'ysunadi. Insho 1-sinfda kichik og'zaki axborot va ehtirosli hikoyadan boshlanib, o'z fikrini ifodalashga, o'quvchi shaxsining tashkil topishiga xizmat qiladigan, ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan jiddiy rejali aqliy ishga

aylanadi. Insho shaxsni shakllantirishda foydali vosita bo'lib, his-hayajon uyg'otadi, aqliy mustaqillikka, fikrlashga, ko'rgan-kechirganlari va o'zlashtirganlarini baholashga, kuzatuvchanlikka, voqea-hodisalar o'rtasidagi sabab-natija bog'lanishni topishga, ularni qiyoslashga, xulosa chiqarishga o'rgatadi. Insho fikrni tartibga soladi, o'quvchilarda o'ziga, o'z kuchi va imkoniyatiga ishonch tug'diradi. Insho — ijodiy ish bo'lib, u o'quvchidan faollik, qiziqish, fikr biidirishni talab qiladi. Material tayyorlash, uni tartibga solish, insho kompozitsiyasi va rejasi haqida o'ylash, mantiqiy bog'lanishni belgilash, so'z, so'z birikmasini tanlash, gap tuzish va uni o'zaro bog'lash, imloni tekshirish kabi barcha murakkab ishlar o'quvchidan aqliy kuchini to'la ishga solish bilan birga, o'z m a'naviy faoliyatini boshqarish ko'nikmasini ham talab etadi. Inshoda til nazariyasi nutq tajribasi bilan qo'shiladi. O'quvchi inshoni mustaqil, ijodiy xarakterda bo'lgani uchun, „o'ziniki“ ni yozgani uchun ham sevadi. Maktab rivojining barcha bosqichlarida bolalarning mustaqil tuzgan hikoyasi — inshoga alohida ahamiyat berilgan. Maktablar o'quvchilar nutqini o'stirish, aqliy, ijodiy o'sishiga mo'ljallangan yangi dasturga o'tishi munosabati bilan uning ahamiyati yanada oshdi. Og'zaki va yozma inshoga o'rgatish jarayonida o'quvchilarda mavzuni tushunish va yoritish, o'z inshosini aniq fikrga bo'ysundirish, material to'plash, uni tartibga solish va joylashtirish, reja tuzish va reja asosida yozish, mazmunga va nutq vaziyatiga mos ravishda til vositalaridan foydalanish, yozgan inshosini takomillashtirish ko'nikmalari hosil qilinadi. Bulardan tashqari, „texnik“ vazifalar ham amalga oshiriladi, ya'ni matnni yozishda imlo qoidalari va husnixatga e'tibor berish, matnni xatboshidan yozish, hoshiyaga rioya qilish kabi talablarga ham amal qilinadi. Og'zaki va yozma insho material manbaiga, mustaqillik darajasiga, tayyorlash usuli, janri va til xususiyatiga qarab tasnif qilinadi. Insho material manbaiga ko'ra uchga bo'linadi: 1) o'quvchining o'zi ko'rgan-bilganlari, eshitganlari haqidagi, kuzatishlar, ekskursiyalar, o'yinlar, o'z tajribasi va boshqarilgan materiallar asosidagi insho; 2) kitob materiallari, rasmlar, film, spektakl, o'qituvchi hikoyasi va boshqarilgan manbalar asosidagi insho; 3) turli manbalar materialidan foydalaniladigan insho. Mustaqillik darajasiga, tayyorgarlik ko'rish metodiga ko'ra insho ikki turli bo'ladi: 1) sinf o'quvchilari uchun umumiy bir mavzu asosida jamoaviy tayyorgarlikdan so'ng yoziladigan insho; 2) alohida mavzu asosida yakka tayyorgarlikdan so'ng yoziladigan individual insho. Janriga ko'ra hikoya, tasvir, muhokama tarzidagi insholarga bo'linadi. Boshlang'ich sinflarda tasvir va muhokama elementlari mavjud bo'lgan hikoya tarzidagi inshodan ko'proq foydalaniladi. Inshoni tasnif qilish ta'limiy vazifalarni chuqur anglash va metodik vositalarni tanlashga, shuningdek, ish turlarini zaruriy yo'nalishda, baravar taqsimlashga yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda yozdiriladigan inshoning muhim turlaridan biri kichik yoshdagi o'quvchilarning shaxsiy hayotiy tajribasiga asoslangan inshodir.

Rasmlar va tabiatni kuzatish asosida yoziladigan insholar maktablarda tez-tez o'tkaziladi, chunki rasmlar bolalar nutqiy ijodini, tasavvurini boyitishga xizmat qiladi. Rasmlarni tomosha qilish kabi sayohatlarga chiqish ham bolalar sezgisiga ijobiy ta'sir

ko'rsatadi. Hayotning bola tarbiyasida hali uchramagan qirralari ochiladi. Rasm o'quvchilarga tanish bo'lgan hodisalarni chuqurroq anglashga yordam beradi.

Rasm asosidagi inshoning uch asosiy turi bor

1. Rasm rejasi yoki rasmlil reja asosida yozilgan hikoya tarzidagi insho.

2. Syujetli–o'quvchilarni o'ylashga, faraz qilishga undaydigan bir rasm asosida yozilgan hikoya tarzidagi insho.

3. Rasmni tasvirlash (tasviriy insho).

O'quvchilar avval rasmlar seriyasi asosida, keyin bir rasm asosida, undan so'ng tasviriy insho yozishga o'rgatiladi.

Insho yozish darsida quyidagi qoidalarga rioya qilinadi:

1. Mavzuni, inshoning vazifasini e'lon qilish (yoki yodga tushirish), uni o'quvchilar bilan muhokama qilish.

2. Kuzatish davrida to'plangan materialni tartibga solish yoki material yig'ish (masalan, rasimga qarab insho yozish uchun rasmni ko'rish) maqsadida suhbat o'tkazish.

3. Reja tuzish yoki avvaltuzilgan rejaga aniqlik kiritish.

4. Matnni inutqiy tayyorlash, ya'ni zarur so'zlarni yozish, so'z birikmasi, gap yoki bog'lanishli matnning ayrim qismini tuzish, imlosi qiyin so'zlarning yozilishini tushuntirish va boshqalar.

5. Darsning asosiy qismi bo'lgan inshoni yozish. Bu jarayonda o'quvchilar inshoni yozayotganlarida, o'qituvchi ular ishini kuzatadi, ayrim o'quvchilarga (boshqalarga xalaqit bermay, ular e'tiborini chalg'itmay) individual yordam beradi.

6. O'quvchilar yozgan insholarini tekshiradilar, kamchiliklarini to'ldirib, xatolarini to'g'irlaydilar. O'quvchilar inshoni oqqa ko'chirmaydilar, kerakli tuzatishlarni ehtiyotlik bilan kiritadilar, bunday tuzatishlar uchun insho bahosi pasaytirilmaydi, aksincha, matnni yaxshi to'g'irlagan o'quvchi rag'batlantiriladi.

7. O'quvchilar inshoni o'qituvchiga tekshirish uchun topshiradilar, o'qituvchi ikki kun ichida tekshiradi.

Masalan, rasmlar seriyasi asosida birinchi marta yozdiriladigan insho uchun quyidagi vazifalar belgilab olinadi:

1. O'quvchilarni inshoning yangi turi bo'lgan rasmlar seriyasi asosidagi insho bilan tanishtirish

2. Rasmlil reja asosida matn rejasini tuzish.

3. Reja qismlariga mos ravishda matnni xat boshilarga bo'lish va har birini xat boshidan yozish.

4. Insho matnini mustaqil tekshirish.

O'quvchilarning dunyoqarashi o'sib borganisayin, inshoga talab ham orta boradi.

2-sinfda o'quvchilar mazmunli rasmlarga qarab gaplar tuza olish, o'qituvchi rahbarligida bolalarning o'yinlari, taassurotlari asosida hikoya (insho) tuzish ko'nikma va malakasiga ega bo'lishlari, seriyali rasmlar va mazmunli bir rasm yuzasidan berilgan savollarga to'liq javob berishlari va ularni yozishlari talab etiladi. O'qituvchi har bir insho turi

uchun o'quv vazifasini belgilab oladi. . Bu ish quyidagi izchillikda amalga oshiriladi: o'quvchi rasm yuzasidan og'zaki hikoya tuzishga o'rganadilar, so'ngra fikrlarini yozma bayon qilishga kirishadilar. 2-sinf o'quvchilariga insho yozishni o'rgatish juda mas'uliyatli ish hisoblanadi. O'qituvchi inshoni yozish tartibini yaxshi o'rgatishi – sarlavhani to'g'ri qo'yish, berilgan savollarga javobni husnixat qoidalariga rioya qilgan holda imlo xatolarsiz yozishga ko'niktirishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qosimova K, Matchonov S, G'ulomova X, Yo'ldosheva Sh, Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. - Toshkent, "Noshir" nashriyoti, 2009, 231b.
2. Roziqov O., Mahmudov M. va b. Ona tili didaktikasi. –Toshkent: „Yangi asr avlodi“, 2005
- 3..K.Qosimova, S. Matjonov , X. G'ulomova , Sh.Yo'ldosheva , Sh. Sariyev . “Ona tili o'qitish metodikasi”-Toshkent, “Nosir” nashriyoti, 2009
- 4.Q.Husanboyeva, M.Hazratqulov, Sh.Jamoldinova. “Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi” Toshkent. “Innovatsiya-Ziyo”- 2020
- 5.O.Roziqov, M.Mahmudov va boshqalar. “Ona tili didaktikasi”-Toshkent; “Yangi asr avlodi”, 2005
- 6.N.Karimova. “Boshlang'ish sinflarda insho yozishga o'rgatish usullari”-maqola. Internet ma'lumotlari: hozir.org arxiv.uz baxtiyor.uz fayllar.org